

[Введите название документа]

**KURBANOVA IRODA MUXAMMADOVNA**

**DIYDOR**

**(SHE'RLAR)**

**IQTISODIYOT - 2009**



Kurbanova Iroda Muxammadovna. DIYDOR. She'rlar Toshkent, «IQTISODIYOT», 2009, 32 bet.

Mazkur to'plamdan shoira Iroda Kurbanovaning turli yillarda yozilgan she'rlari o'rinni olgan bo'lib, ularda ona – yurt, do'stlik, sadoqat, asirlar osha boqiy bo'lgan sevgi va muhabbat mavzulari shoiraninig ichki kechirmalari his tuyg'ulari orqali tarannum etilgan.

Ravon, soda, ayni vaqtida chiroyli lirik tashbehlarga boy bo'lgan she'rlarni o'zida jamlagan ushba kitob, sheriyat muhlislariga ma'qul va manzur bo'ladi, deb umid qilamiz.

ISBN 978-9943-333-14-5

© TOSHKENT – «IQTISODIYOT» - 2009




# MUNDARIJA

## VATAN MEHRI. ONA BILAN BOLA, GUL BILAN LOLA

O'zbekistonim.....	4
Yurt tinchlik taronasi.....	5
Yurakka o't yoqadi.....	6
Umrilm bezagi onam.....	7
Eh, ona afsus.....	8
Farzandim, dilbandim.....	9
Yolg'iz ayollar.....	10
Kelinchak.....	11

## ISHQ TIMSOLI GO'ZAL BUNCHALAR. ARMON BAG'RIDA QOLGAN HISLAR

Izlar ekan baxtini.....	13
Dildorning dildorimas.....	14
O'zimga o'zim.....	15
Shaydo o'zim.....	16
Vafodorim.....	17
Kechir gulim.....	18
Ayblama endi.....	19
Azal azal.....	20
Do'stlikmi yo sevgimi?.....	21
Yo'q sevgi.....	22
Endi-endi.....	23
Meni esla.....	24
Netay.....	25
Afsus afsus.....	26
Sinab sinab.....	27
Ma'yus ma'yus.....	28
Qilgan ekanman orzu.....	29
Do'stmi ishonchim sotgan.....	30



## **ONA BILAN BOLA, GUL BILAN LOLA**

## “O’zbekistonim”

Buguningdan fahrlanmayin nechun  
Madhing kuylar bugun yoshlar sen uchun  
Ravnaqingga xissa qo’shish shiorim  
Jannatmakonimsan O’zbekistonim.

Osmon qadar yuksaldi shon-shuxrating  
Bobolardan buyuk meros qudrating,  
Yuzlab ulug’lar ulg’aygan xur diyor  
Har sohada doim omad bo’lsin yor.

Mehringni his etdim musofir bo’lib  
Yodga oldim har dam sog’inchga to’lib,  
Dunyolarga alishmam tuprog’ingni  
Jahon kezib bildim yurtim qadringni.

## “Yurt tinchlik taronasi”

Buhoro-yu sharifning  
Azal tarixi buyuk,  
Necha ulug' zotlarning  
Vatani erur bu yurt.

Zarafshon tillo koni,  
Navoiydur makoni  
Ko'kragi yerga tegmas  
Qashqadaryo polvoni.

Azal tarixga ega  
Ko'xna Xiva minori.  
Samarqandning faxridur  
So'lim Bog'i Chinori.

O'tmish fahri Registon  
Shohizinda bir jahon  
Qadim fanning rivoji  
Samarqand yurt gultoji.

Mehmonlarni hush kutar  
O'zbegim Farg'onasi.  
Yarashur har janonga  
Marg'ilon xon atlasi.

Xivaning gilamlari  
Dilingga hush yoqadi,  
Xorazm lazgisi-ye  
Yurakka o't yoqadi.

Gullar shahri Namangan  
Derlar shirin olmasi,  
Tilingizga hush yoqar  
Qand-u novvot xolvasi.

Afsunli shirin zabon  
Yurtim ichra Andijon,  
Mehmondo'st ona xalqim  
Yashnasin O'zbekiston.

Dunyoning ko'rkin bezar  
O'zbek ipak tolasi,  
Barqaror bo'lzin do'stlar  
Yurt tinchlik taronasi.

## “Umrim bezagi onam”

Hayotning ummonida, onam menga qirg'oqsiz  
Mehrning chashmasidan oqib turgan buloqsiz,  
Gul umrimning mash'ali yonib turgan chiroqsiz  
Toki siz bor ekansiz, umrim mash'ali so'nmas  
Men uchun bu dunyoda sizdek mehribon bo'lmas.

Taqdir boshingizga solsa gohida g'am, goh alam  
Qismatingizdan kuyib, nolimadingiz hech ham,  
Tengsiz sabr bardoshingizni o'zi biro lam  
Toki siz bor ekansiz, yuragimga g'am to'lmas,  
Men uchun bu dunyoda hech kim sizdek do'st bo'lmas.

Ayol boshingiz bilan ham, ota ham onasiz  
Tinim bilmay qoshimda tun-u kun parvonasiz,  
Otag ruhi qo'llasin deya duo qilasiz  
Toki siz bor ekansiz egilmas yigit boshim  
Men uchun bu dunyoda yagona siz sirdoshim.

## “Eh, ona afsus”

Kimlardir umr bo'yi tirnoqqa zor  
Kimdir o'z ota-onasi mehriga,  
Iltijo qilib kezib tunlar bedor  
Yetay deb yaqinlari diydoriga.

Tole'im kular deb umidla yashar  
Ba'zida sog'inchdan ko'zlarin yoshlar,  
Eshik ortida qolgan ko'zlar intizor  
U ota-onan mehrin kutib yashar.  
(go'yoki yolg'iz qolgan yulduzga o'xshar)

Ba'zida ayblab o'z taqdirini  
Tashlab katgan bo'lsada farzandini,  
Nahotki sog'inmas,qinalmas tunlar  
Afsuski sarson qilar,go'dak qalbini.

Xattoki uvoli bor tashlasang tosh  
Nahotki shunchalar bo'lsang bag'ritosh,  
Go'daging ko'ziga termulsang bir zum  
Unutarding dunyo tashvishin butkul.

Uxla bolam deya alla aytmading ona  
Tashlab qo'yib sira ortga qaytmading ona,  
Kelasan deb kutadi ko'zlari ma'yus  
Sen esa qayg'urmaysan eh,ona afsus.

## “Farzandim,dilbandim”

Qismatimga bitilgan  
Yorimdan bo’ldim judo,  
Ikki qirg’oq singari  
Yo’limiz tushdi ayro.

Tushkunlik g’am qariga  
Co’kmadim men aksincha,  
Ko’zim yumib bariga  
Intilay kuch boricha.

Farzandim ertam mening  
Baxtlar sari eltguvchi,  
O’tmishim qoldi ortda  
Bu dunyodir o’tkinchi.

Baxt so’zin zamirida  
Yaqinim do’stim onam,  
Orzular zaminida  
Hamrohim suygan bolam.

Farzandim,dilbandim  
Baxtim yagonam o’zing,  
Farzandim,dilbandim  
Kulib tursin sho’x ko’zing.

## “Yolg’iz ayollar”

Sukunat zaminida  
Orzular zamirida,  
Baxt izlar ishq faslida  
Yolg’iz yorsiz ayollar.

Sevishganlar baxtini  
Tinglab goho dardini,  
Yoshlar ojiz qalbini  
Yolg’iz yorsiz ayollar.

Bordir shunday ayollar  
Surib shirin hayollar,  
Armonga asir bo’lib  
Qolgan yorsiz ayollar.

Haqli edi sevishga  
Sevib baxtli bo’lishga,  
Hiyonat go’shasida  
Yolg’iz qolgan ayollar.

O’ylab u farzandini  
Unutib bor dardini,  
Kutar ezgu baxtini  
Yolg’iz yorsiz ayollar.

Taqdir xazilimi bu  
Bitilgan dard qismatga,  
Necha necha ayollar  
Mushtoq chin muhabbatga.

## “Kelinchak”




Ko’kda ikki oq kabutar  
Parvoz qilar bu kun visol,  
Soniyalar uzra shu dam  
Qiz noz qilar oqqush misol.

Umid qilib go’zal baxtni  
Uchratibsan muhabbatni,  
Oq libosing soya solsin  
Taqdiringdan baxting kulsin.

Sevgan yoring bo’lib zoring  
Orzuyingga eltar bo’ldi,  
Unutilmas shirin damda  
Nechun ko’zing yoshga to’ldi.

Tutash yo’llar ikki dil bir  
Ishq sevgiga bo’lsin hamroh,  
Senga kulib boqqan taqdir  
Shod kunlardan topsin panoh.

## **ISHQ TIMSOLI GO'ZAL BUNCHALAR**



## **ARMON BAG'RIDA QOLGAN HISLAR**

## “Izlar ekan baxtini”

Chamanlar ichra g’uncha  
Maftunkor gul bo’lguncha,  
Iforlarga to’lguncha  
Izlar ekan baxtini.

Samolarga bo’y cho’zib  
Armondan umid uzib,  
Noz ila ko’zin suzib  
Izlar ekan baxtini.

Shamol tebratib asta  
Mast dillar nogoh xasta,  
G’unchalar bo’lib dasta  
Izlar ekan baxtini.

Bulbullar asirda  
Qalb umid zaminida,  
Baxt so’zin zamirida  
Gul izlaydi baxtini.

## “Dildorning dildorimas”

Xomush bulbul honishdan  
Hech tinmay zor-zor kuylar,  
Aytishicha g’unchasi  
Muhabbati xor aylar.

Ko’pdır men kabi yorlar  
Ul yor ishqida zorlar,  
Chekar ozor,yurak zor  
Kuydim bo’lib intizor.

Uyat bilmay hattoki  
Qo’nadi shoxdan shoxga,  
O’z yori bo’la turib  
Goh ma’shuq o’zga bog’ga.

Naxot dildor ikki dil  
Bir yuraging asiri,  
Chil-chil sinar yor ko’ngil  
Xatto muhabbat qasri.

Dildorning dildorimas  
Chin vafodori do’lsin,  
Shaxlo ko’z humorimas  
Eng avval ori bo’lsin.

## “ O’zimga o’zim”

Sovchi jo’nating derdi  
Go’yo beparvo edim,  
Jondan sevsamda uni  
Sabr qilib tur derdim.

Ota-onam amriga  
Qarshi chiqib bo’larmu,  
Kech qoldim bilmam endi  
Baxtim qaytib kularmu?!

Ne sababdan yurmadi  
Taqdir buyurgan yo’ldan.  
Ex, afsus ulgurmadi  
Yorim chiqdiku qo’ldan...

O’zimga o’zim qildim  
Taqdirni o’yin bildim,  
Baxt qushim uchib ketdi  
O’zgani quchib ketdi...

## “Shaydo o’zim”

Muhabbat sahnida ochilgan gulim  
Iforlar taratib olding hayolim,  
Muloyim kulib yor boqib gul yuzim  
Oh,shirin so’zlarining shaydosi o’zim.

Kipriklar ostidan boqib ko’zlarining  
Dona xol,kulguchi bor qizil yuzlarining,  
Sog’inch ila nigorim kutar bu ko’zim  
Oh,shirin so’zlarining shaydosi o’zim.

Gohida hayollar talpinar o’zingga  
Sevishim aytgim kelar boqib ko’zingga,  
Izlab izlab topganim sho’x qaro ko’zim  
Dil izhorimni tingla kelgin yolg’izim.

## “Vafodorim”

Gulsiz bahor bo'larmu  
Daryosiz suvsiz to'larmu,  
Sevgingsiz baxt kularmu  
Yorim kel vafodorim.

Qalbing sari ishq zorim  
Eltar qo'ldagi torim,  
Betakror beg'uborim  
Yorim bo'l vafodorim.

Nafosatli nozligim  
Aqlim olding dildorim,  
Sho'x erka gul yuzligim  
Yorim bo'l vafodorim.

Baxtim sening qo'lingda  
Ko'zim toldi yo'lingda,  
Ishqim bo'lsa ko'nglingda  
Yorim kel vafodorim.

Vafodor vafodorim  
Noz qilma kel dildorim,  
Ilk bor qalbim qasrida  
Sevgimsan dilda borim.

## “Kechir gulim”

Bir tan-u bir jon bo’lib  
Qo’ydik bir yostiqqa bosh,  
Kutilgan baxt ortidan  
Yorim qalbing to’kar yosh.

Kechir gulim, kechir kechir  
Baxtli qila olmadim,  
Sen yongan ishq o’ti ichra  
Bir zum men ham yonmadim.

Onam amrin bajarib  
Go’zal seni yor etdim,  
Majburan ishq qasrida  
Pok qalbingni zor etdim.

Tutashdi taqdirimiz  
Lek bir emas dilimiz,  
Ishonib kutgan baxting  
Armon oldida ojiz.

Tunlar bedor uxlamay  
Yo’lim uzra intizor,  
Boqqaniningni sezmadim  
O’zgaga bo’lib xushdor.

Balki qadring sezmadim  
O’zgalar quchog’ida,  
Nozik qushcham sevgingini  
His qilmadim gohida.

Qismat uzra armonni  
Ko’rding men dilozordan,  
Men berolmagan baxtni  
Toparsan o’zga yordan.

## “Ayblama endi”

Sevdim sevmadi  
Ketdim kelmadi,  
Kuyib yondim lek  
Dardim bilmadi.

Yorim sho’xmidi  
Qadrim yo’qmidi,  
Go’yo tanho u  
Ko’ngli to’qmedi.

Kulib jon oldi  
Yor o’tga soldi,  
Bedor bu ko’zdan  
Uyqu yo’qoldi.

Asli bevafo  
Go’yo beparvo,  
Ozorim sevgi  
Dardim bedavo.

Aybimmi meni  
Sevganim seni,  
Qiynagan o’zing  
Ayblama endi.

Aybdormi endi  
Bechora sevgi,  
Qani bu holim  
Anglasang edi...

## “Azal azal”

Menikisiz siz faqat  
Deya ishonch bildirma,  
Yoningda yor muhabbat  
Sen uzoqdan qidirma.

Osmonga zaminga yo’ldosh  
Oymomoga yor quyosh,  
Sho’x kapalakdek dildor  
Shoxdan shoxga qo’nma yor.

O’zga bog’ bulbuliga  
Yaproqlaring tutmagin,  
Har bog’dan mehr istab  
Chin muhabbat kutmagin.

Azal azal xiyonat  
Hech bir dilga yoqmaydi,  
Xiyonatdan kutma baxt  
Sira kulib boqmaydi.

## “Do’stlikmi yo sevgimi?”

Qalbim asir etolgan  
Yolg’iz o’zing sevgilim.  
Qancha olis bo’limagin  
Bir seni istar dilim.

Sevmasamda negadir  
Yor sog’inaman har on,  
Yonar o’tda yonsam ham  
Unutmayman hech qachon.

Nahot do’stlik rishtasi  
Sevgi sari yetaklar,  
Har on birga bo’lsagu  
Qalbimni sog’inch tilar.

Ko’z oldimda o’zgani  
Dil izhorin kutasan,  
Ba’zan ul yoringni deb  
Borligim unutasan.

Ko’zlaringga boqib yor  
Sevishim aytolmayman,  
Sho’x kulgularing uzra  
Mehring unutolmayman.

Bevafo desam seni  
Bevafolik qilmasding,  
Do’sting deb o’ylab meni  
Sevishimni bilmasding.

## “Yo’q sevgi”

Zardalar etib  
Yonimdan ketib,  
Baxtdan voz kechding  
O’zgani sevib.

Hiyonat yomon  
Bu holing ayon,  
Yor topolmaysan  
Menday hech qachon.

Izlab topganing  
Mendan zo’rmidi,  
Seni uchratgan  
Ko’zim ko’rmidi.

Dillarda armon  
Bu sevgi sarson,  
Sevib unutish  
Nahotki oson.

## “Endi-endi”

Sog’inch ozori ezgan  
Damlarda eslamadim,  
Sen meni deb kuyganda  
Yor qadringni bilmadim.

Kutding qalbimdan panoh  
Qayg’uga bo’lib hamroh,  
Yonar o’t ichra yonding  
Tunlar chekib oh-u voh.

Borligingni unutdim  
O’zga gul quchog’ida,  
Bormi senday vafodor  
Farishta ishq bog’ida?!

Har kimdan ustun bilding  
Lek hisobga olmadim,  
Afsus qadring kech bildim  
Yoningda qololmadim.

## “Meni esla”

Shamollar goh senga sirli so’z aytar  
Sog’inchim yetkazolmay ortga qaytar,  
Seni sog’inaman olisdan qarab  
Kulib ulgurmay baxtim qoldi yig’lab.

Bu jismim tark etgan bo’lsa ham seni  
Bir zumga ham unutma jonim meni,  
Qismatimiz oldida barcha ojiz  
Sinovlardan ayblama taqdirni.

Yo’qligimga ishonmay, azob chekma  
Chin ro’yonи tush deb o’ylab yosh to’kma,  
Sog’inching siymosi ruhim yoningda  
Shum taqdirning armon qariga cho’kma.

Xatto hayol bilan bermayin ozor  
Istamasdim tunlaring bo’lsa bedor,  
Istamagandim seni tark etishni  
Istamagandim hayotdan ketishni.

Meni esla,yorim yolg’iz qolganda  
Meni esla,sevgim yodga olganda,  
O’lim bilan sevgim yakun topmasin  
Armon hotira daftarin yopmasin.

## “Netay”

Hayolim band etolgan gulim  
Taqdir ravo ko’rmadi menga,  
Oshiq jismimni azoblaydi  
Faqatgina bir savol “nega”.

Jonim ikki qirg’oq singari  
Ayro tushdi bu taqdir yo’lim,  
Muhabbatga oshno bo’lsada  
Ko’z yosh to’kar bechora ko’nglim.

Sevasanmu deya so’rasam  
Nechun ma’yus boqar ko’zlarin,  
Ayriliq sababin bilmadim  
Yolg’onmidi aytgan so’zlarin.

Ko’zlarim ko’zingga tushganda  
Qo’llarim qo’lingdan tutganda,  
Oshno do’lar alamga dardim  
Tashna bo’lar mehringga qalbim.

Ket yor ket desang mayli ketay  
Mayli ketay bo’lib ovvora,  
Seni so’rab qo’ymasa netay  
Yig’lab qolgan sevgi bechora.

## “Afsus afsus”

Menga atalgan tunlar  
O’zgadan kutar visol,  
Betakror o’tgan kunlar  
Sochildi hazon misol.

Qalbingga mehmon bo’lib  
Kirib kelibdi bahor,  
Shod kunlar senga faqat  
Menga emas ekan yor.

Sevaman sizni degan  
Izhoringga uchibman,  
Chindan sevar yor desam  
Dilozorni quchibman.

Yuraging go’yoki bir  
Olislardan baxt kutar,  
Mening kuygan yuragim  
O’tmish alamin yutar.

Afsus afsus,yor xanuz  
Zorlanar qalbimda kuz,  
Beg’ubor go’zal bahor  
Sen tomonda mehmon yor...

## “Sinab sinab”

Sinab sinab sabrimni  
Nozingdan bezor etma,  
Tilab tilab baxtimni  
Armonlarga yor etma.

Borligimni unutib  
Qo'yasan goh gohida,  
Sog'inchim aytolmayman  
Orzular panohida.

Go'zal niqob ortidan  
Boqasan kulib kulib,  
Hayol ila qolaman  
Senga uzoq termulib.

Nozik qushsan beg'ubor  
Samolarga bo'y cho'zgan,  
Armon bo'limagin dildor  
Ishqim rishtasin uzgan.

## “Ma’yus ma’yus”

Ma’yus ko’zlarim ila senga termulsam  
Vujudimni hayajon titrog’i bosar,  
Qaniydi bir umr yor yoningda bo’lsam  
Degan o’y hamisha hayolda kezar.

Mayli mayli sen uchun men azoblanay  
Bir bor shod kuning uchun jonimni beray,  
Visol tun oqshomidan yulduzlar sanab  
Quvonchingni ko’rib men dildan quvonay.

Armon ayriliq ichra to’siq bo’lolmas  
Tilda bo’lmasada ishq dilda bo’lsa bas,  
Kerakmas osmondan oy yulduzli chiroy  
Ayriliqdan voz kechib baxtga eltsang bas.

Ma’yus ma’yus ko’zlar ham  
Hanuz yor afsuslar ham,  
Fitoqdan baxt kutolmas  
Dil seni unutolmas.

## “Qilgan ekanman orzu”

Ilk bor uchrab ko’chamda  
Asir etding qalbimni,  
Shuncha yashab ko’chamda  
Nechun ko’rmabman seni.

Otang suygan qizisan  
Bir dona yolg’izisan,  
Aytolaysan yor sevging  
Go’yo emasman tenging.

Parvozsiz qush misoli  
Sevgim yonar otashda,  
Erkatoy yor visoli  
Nahot qolar o’tmishda.

Baxtlar sari eltar deb  
Qilgan ekanman orzu,  
Ro’yo emas tush ekan  
Dildagi sirli tuyg’u.

## “Do’stmi ishonchim sotgan”

Qalbim tark etsa quvonch  
Qarsak chalar izimda,  
Qo’limga tutib ishonch  
Paymol qilar bir zumda.

Kuysam chekar oh-u voh  
Tili-yu dili boshqa,  
O’zin olib qochar goh  
Mushkul ish tushsa boshga.

Ishondim umid berib  
Do’stman der ko’ksin kerib,  
Ishi tushsa qidirib  
Kelar o’zi yugurib.

Soxta kulgu nigohlar  
Kuygan yurakni ezar,  
Haqiqiy do’st insonni  
Qalbin mehrla bezar.

KURBANOVA IRODA MUXAMMADOVNA

DIYDOR

(SHE'RLAR)

**TOSHKENT – «IQTISODIYOT» - 2009**

**Muharrir:**

**Tex. muharrir: J.Imomov**

**Musaxhih:**

**bosmaga ruxsat etildi 10.09.2009. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.**

**Shartli bosma tabog'I 2,0. Adadi 50 nusxa.**

**— - sonli buyurtma. Toshketnt “Iqtisodiyot” 2009.**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bosma honasida.**

**100003. Toshkent, O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy.**